

**MODUL / FAN
SILLABUSI**
Filologiya fakulteti
5120100 – Filologiya
(o'zbek tili) ta'lim
yo'nalishi



Fan nomi:	“O‘zbek dialektologiyasi” fanidan malakaviy dialektologik dala amaliyoti
Fan turi:	majburiy
Fan kodi:	O'DMO'DA 2003
Yil:	2021-2022
Semestr:	4
Ta'lim shakli:	kunduzgi
Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:	72
Ma'ruza	-
Amaliy mashg'ulotlar	-
Laboratoriya mashg'ulotlari	-
Seminar	-
Mustaqil ta'lim	-
Kredit miqdori:	-
Baholash shakli:	-
Fan tili:	o'zbek
Malakaviy o'quv dala amaliyotining maqsadi (MO'DAM)	
MO'DAM 1	Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga o'zbek shevalarining eng muhim xususiyatlari, ularning murakkab dialektal tarkibi, leksik, fonetik va grammatik tabiati haqida batafsil tushuncha va ma'lumot berish, zarur shroitlarda ulardan amalda foydalanish malakasini shakllantirishdan iborat.
MO'DAM 2	Fan va ta'lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovatsiyalarni ta'lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimidan keng foydalanish.
Malakaviy o'quv dala amaliyotni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar	
1.	O'zbek shevalarining muhim xususiyatlarini o'rganish, ulaning fonetik, leksik, morfologik xususiyatlari bo'yicha tushunchaga ega bo'lish
2.	O'zbek shevalarining grammatik xususiyatlari bilan bir qatorda ularning tarqalish geografiyasi haqida tasavvurga ega bo'lishlari lozim.
Malakaviy o'quv dala amaliyot natijalari (MO'DAN)	
	Bilimlar jihatidan:
MO'DAN 1	Fanga oid tushunchalarni va metodlarni bilish, bilimlarning asosiy yo'nalishlarini amaliyotda qo'llay olish.
MO'DAN 2	Sheva lug'atlarini tuzish, transkripsiya prinsiplarini o'zlashtirib olishi
MO'DAN 3	Milliy tilning asosi bo'lgan shevalar, ularning dialektal xususiyatlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi
MO'DAN 4	O'zbek shevalarining muhim fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini farqlay olishi va tushuntirib bera olish darajasida bilishi
	Ko'nikmalar jihatidan:
MO'DAN 5	Turli metodlarda, ayniqsa, qiyosiy metod bilan shevalarni

MO'DAN 6		o'rganish va tahlil qilish Muayyan bir sheva haqida to'la ma'lumot berish ko'nikmalariga ega bo'lishi	
MO'DAN 7		Muayyan bir sheva haqida to'liq ma'lumot berish va shevalarni muayyan guruhlarga kiritish malakasiga ega bo'lishi kerak.	
"O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI" FANIDAN MALAKAVIY O'QUV DALA AMALIYOTI DASTURINING MAZMUNI			
Amaliyot bosqichlari	Amalga oshiriladigan ishlar mazmuni		
Amaliyotga tayyorlash	Talabalarni nazariy jihatdan amaliyotga tayyorlash. "O'zbek dialektologiyasi" kursiga oid bilimlarni mustahkamlash. 4 haftalik amaliyotning o'ziga xos xususiyatlarini, maqsad va vazifalarini talabalarga to'g'ri tushuntirish. Dialektologik materiallar ustida ishlash jarayonini ularga singdirish va bu haqdagi talabalarning tushunchalarini kengaytirish.		
1-hafta	"O'zbek dialektologiyasi" fanidan amaliyotga borish uchun talabalar bilish kerak bo'lgan texnika xavfsizligi qoidalarini quyidagilardan iborat		
	1. Ko'chada yurganda yo'l harakati qoidalariga amal qilish.		
	2. Elektr jihozlariga tegmaslik.		
	3. Elektr asboblari ehtiyohtkorlik bilan ishlatish.		
	4. Gaz asboblari ehtiyohtkorlik bilan foydalanish.		
	5. Taqiqlangan joylarda cho'milmaslik.		
	6. Ariqdagi suvdan ichish uchun foydalanmaslik.		
	7. Ta'qiqlangan joylarda yurmaslik.		
	8. Begona odamlar bilan ortiqcha suhbatlashmaslik.		
	9. Rahbarning ruxsatisiz kunlik amaliyotga chiqmaslik.		
	10. Ruxsatsiz yakka o'zi chiqib ketmaslik.		
	11. Jamoat tartibini buzmaslik, jamoani hurmat qilish.		
	12. Sheva vakillari nutqini hurmat qilish.		
2-hafta	13. Noo'rin gapirish va qo'pol holatlarda yurishdan saqlanish.		
	Uslubiy tayyorgarlik. O'zbek sheva va lahjalariga oid materiallarni to'plash, ular ustida ishlash jarayonini talabalarga tushuntirish va talabalarga yo'l-yo'riqlar ko'rsatib berish.		
	Tashkiliy masalalar. Universitet ma'muriyatidan texnik vositalar bilan ta'minlanishiga e'tibor qaratish, bu ishga talabalarning imkoniyatlarini jalb etish. Talabalarning sheva va lahjalariga oid materiallarga diqqat qilishiga, dialektologik materiallarning qanday xarakterli xususiyatlarini hisobga olishlariga jiddiy e'tibor qaratish, ularda bunga nisbatan ko'nikmalar hosil qilish.		
Amaliyotni o'tkazish	Talabalarning to'rt haftalik dialektologik malakaviy o'quv dala amaliyotiga imkoniyat yaratish. Bu davr oraliqida har bir talabaga ajratilgan mavzularning amaliyot rahbarlari tomonidan ko'rib chiqilishiga e'tibor qaratish. Amaliyot yuzasidan tuzilgan rejalar asosida talaba bilan individual suhbatlashish. Amaliyot rahbar Dekanat va universitet rahbariyati		
2-hafta	Dialektologik materiallarni to'plash va ular ustida ishlash davomida		
	Talaba obyektni – sheva vakilini suhbatga tortishi uchun quyidagi mavzularda so'z ochishi maqsadga muvofiq bo'ladi:		
	Qishloqda yashovchilarning qaysi o'zbek guruhiga mansubligi.		
	Ushbu hudud tarixi to'g'risida.		
	Mazkur hududning nomining kelib chiqishi va ma'nolarini imkoniyat doirasida izohlash.		
	(onomastis qatlam - toponimlar, oronimlar, gidronimlar, etnonimlar, antroponimlar, teonimlar, fitonimlar, zoonimlar va boashqalar)		
	Qishloq vakillarining o'ziga xos urf-odatlar.		
	O'zbek xalqi tarixidagi muhim voqealar shu yerlik aholi nutqi misolida izohlab ko'rsatish.		
	Sheva vakillariga xos bolalar o'yinlarini yozib, qanday borishini izohlash.		
	Sheva vakillariga xos o'yinlarning nomi va ularning boshlanishi, tugashini talqin etish.		
	Sheva vakillariga xos kasb-hunarlarining nomini yozib, ularni sharhlash.		
	Xalqaro ahvolga sheva vakillarining munosabatini qayd etish.		
	Bu hudud aholisi nutqida uchrovcu xalq qo'shiqlari, ertak, doston va termalar.		
Tabiat hodisalarini izohlash.			
Dehqonchilik va chorvachilik muammolarini yozib olish.			
Qishloq vakillari shug'ullanadigan kasb-hunarlar haqida ma'lumotlar yig'ish.			
Bu hududda yashovchilarning milliy qadriyatlarini sanab, izohlash.			
Ushbu hududdagi to'y-tomoshalar va ularning o'tkazilishini izohlab bering.			

	Shu kunning muhim voqealariga sheva vakillarining munosabatini hisobga olish. Sheva vakilining tarjimai holini so'rash hamda kasbini so'rash. Talabalarning o'zlari doimiy yashaydigan hududlar (QFY, MFY, mahalla va qishloqlar)da	
3-hafta	Talabalar o'zlari o'rgangan hudud shevalariga oid materiallarni amaliyot rahbari bilan birgalikda tahlil qilib chiqadi, amaliyot rahbarining maslahat tavsiyalari, ko'rsatmalari asosida to'plangan dialektologik materiallar ustida kutubxonadagi tavsiya etilgan tegishli adabiyotlardan foydalangan holda materiallarni qayta ishlanadi va amaliyot rahbarining tavsiyasi bilan oqqa ko'chiriladi. Amaliyotga rahbarlik qiluvchi o'qituvchilar	
Amaliyotni tugallash	"O'zbek dialektologiyasi" fani amaliyotining bajarilishi to'g'risida hisobot Ushbu amaliyotni yakunlash va u haqida hisobot topshirish ham amaliyotning asosiy va mas'uliyatli qismlaridan biri hisoblanadi. Bu hisobot talabalarning o'quv amaliyoti davomida amalga oshirgan barcha faoliyatining ko'zgusidir. Shuning uchun ham talabalarning mazkur amaliyotdagi ishlarini baholash ham mana shu hisobot asosida bo'ladi. Buning uchun talabalar yuqorida aks etgan reja bilan shevalarni o'rganishda kerak bo'ladigan maxsus dialektologik dastur asosida hisobot yozib topshiradilar. Talaba bu amaliyotdan juda ko'p narsalarni o'rganishi, ayrim qarama-qarshiliklarga duch kelishi, ayrim yutuqlarni qo'lga kiritishi va mustaqil fikrlar bilan chiqishi mumkin. Mana shu narsalar uning hisobotida o'z aksini topadi. Amaliyot tugagach, uning o'tishi haqida hisobot talab qilish talabalarning o'z ishiga mas'uliyat bilan qarashlarini, samarali ishlashlarini hamda yetkazib qo'yish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Amaliyot yakunida talaba o'zi o'rgangan sheva vakillari o'rtasida olib borgan ishlari, amaliyotdan oltirgan ko'nikma va malakasi, duch kelgan turli xil muammolari, o'zida tug'ilgan ayrim fikr-mulohazalari haqida to'liq hisobot yozadi. Shevaga oid leksik birliklarning ko'rsatilgan namuna asosida so'zligini tuzadi.	

Kirish

Har bir fanning nazariy hamda amaliy kurslari – qismlari mavjud. Agar fan faqat nazariyadan iborat bo'lganda bugungi fan-texnika tarqqiyoti yuzaga kelmagan bo'lardi. Fanning uzluksiz rivojlanib borishi nazariya va amaliyot (praktika)ning o'zaro mutanosib bo'lishini talab etadi. Albatta, nazariya amaliyotda o'z natijasini topmas ekan, u quruq gapdan bo'lak narsa emas. Shuning uchun ham qadim-qadimdan kishilar aytilgan har bir narsaning hayotdagi izini, o'rnini, qo'llanishini izlab, qidirib topishgan hamda kuzatishganki, natijada fan, texnika va madaniyat rivojlangan.

Oddiylikdan murakkablik sari borish tufayli kishilik jamiyatida o'sish-u o'zgarish bo'lgan. Bunday o'zgarish, albatta, yangilikning eskilik ustidan g'alabasi bilangina yuzaga kelganligini hamma biladi. Shu sababli ham oliy va o'rta-maxsus ta'lim tizimida pedagogik, o'quv, ishlab chiqarish, dialektologik va uzluksiz amaliyot keng qo'llanib kelinmoqda.

Yuqorida qayd qilib o'tilgan amaliyotlardan biri "O'zbek dialektologiyasi» fani bo'yicha joylarda o'tkaziladigan amaliyotdir. Amaliyot ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, u to'rt haftaga mo'ljallangan dala va malakaviy amaliyotdan iborat. Unga ko'ra har yili kunduzgi bo'limning ikkinchi kurs talabalari rejalashtirilgan ma'lum bir hududning shevasini o'rganib, u asosida shevaga oid materiallarni yig'ib kelishadi. Talabalar sheva vakillari bilan suhbatlashib, nazariy ma'lumotlarni amaliy ma'lumotlar bilan muqoyasa qilishlarining natijasi ijobiy bo'lishi aniq. Talabalar o'zlarining shevalaridan boshqa bir shevani eshitib, ma'lum bir dastur asosida o'rganishsa, bilingki, u sevgan kasbini yana ham mukammal o'rganishga kirishadi.

O'zbek shevalarini o'rganish bo'yicha bugungi kungacha bir qancha metodik qo'llanmalar nashr qilingan: "O'zbek sheva lahjalarini tekshirishga doir savol-javoblar" (A.K.Borovkov, 1944.), "Buxoro oblastidagi o'zbek shevalarini o'rganish uchun anketa" (M.Mirzayev, 1955.), "O'zbek tilining Namangan dialekti bo'yicha material to'plovchilar uchun anketa" (A.Aliyev, 1964.), "O'zbek tilning mahalliy shevalari bo'yicha material to'plovchilar uchun anketa" (A. Aliyev, K.N.Nazarov, 1976.) va boshqalar. Ammo bu metodik qo'llanma hamda anketalarning maqsad va vazifalari o'zgacha bo'lib, dialektologik amaliyot uchun to'liq foydalanish mumkin emas. Chunki ular, asosan, ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini o'tkazish uchun tuzilgan metodik qo'llanmalar hisoblanib, birortasi "O'zbek dialektologiyasi» fanidan to'liq amaliyot o'tkazishni o'zida qamray olmaydi. Sababi, ular bir-biridan quyidagicha farqlanadi:

1. Anketalar alohida tadqiqotchilar uchun tuzilgan. Shuning uchun uni bir kishi to'ldirishi maqsadga muvofiq.

2. Ushbu ishdagi amaliyot o'tkazish uchun ko'rsatmalar esa butun bir kurs talabalari ayni bir vaqtda sheva vakillari nutqini kuzatish uchun tuzilgan.

Shunday ekan, Filologiya fakulteti talabalari uchun "O'zbek dialektologiyasi" fanidan amaliyot o'tkazishda ma'lum bir yo'nalishlar beradigan metodik ishning bo'lishi zarurdir. Mazkur metodik qo'llanma xuddi ana shu maqsadda yaratildi. U yuqorida birma-bir qayd qilingan metodik ishlarga suyanilgan holda va respublikamizdagi

dialektologik olimlarning fikr-mulohazalari hamda tajribalariga, bir necha yillardan buyon o'tkazilib kelinayotgan dialektologik amaliyotdan o'ttirilgan amaliy tajribalarga asoslanib ish olib borilgan holda yaratildi.

Mazkur o'quv-uslubiy majmuada dialektologik amaliyotning maqsad va vazifalari, bu amaliyotga tayyorgarlik ko'rish, shevalarni o'rganish va shevalarga oid dalillarni yig'ish usullariga doir yo'llanmalar berilgan. Bular bilan bir qatorda dialekt va shevalardan dalillar yig'ish dasturi, amaliyot tugagandan so'ng o'tkazilgan amaliyot yuzasidan hisobot yozish va yo'l-yo'riqlari haqida ham to'xtalib o'tilgan.

Bugungi kunda har bir mutaxassis o'zi tanlagan sohasini mukammal egallagan bo'lishi davr talabi sanaladi. Shuning uchun ham har doim o'tkaziladigan pedagogik amaliyot kabi "O'zbek dialektologiyasi" fanida bo'ladigan amaliyotni muvaffaqiyatli yakunlash har tomonlama mohir va yetuk filolog bo'lmoqchi bo'lgan har bir talaba oldidagi asosiy bajarilishi lozim bo'lgan vazifalardan biri hisoblanadi.

"O'zbek dialektologiyasi" fani amaliyotining maqsad va vazifalari

Ushbu amaliyot o'quv amaliyotlaridan biri hisoblanib, talabalar o'qish davrida o'tilgan nazariy mashg'ulotlarning amaliy qismini bu amaliyotda o'z ko'zlari bilan ko'rishadi. Natijada, nazariya bilan amaliyotning doimiy uzviyligi - birligi zarurligini his qilishadi, tushunishadi. Hammaga ma'lumki, belgilab olingan dialekt va shevalardan ma'lum dastur asosida yig'ilgan dalillarni har tomonlama tadqiq etish bilan zarur ilmiy xulosalarga kelish mumkin. Sababi, ular o'zbek tarixini, tarixiy fanlarni kerakli dalillar bilan ta'minlaydi. Ba'zan bir shevada shunday noyob fakt(dalil)lar uchraydiki, ular hech bir tarixiy manbada ham, hech bir tarixiy yodgorlikda ham uchramaydi. Bunday fakt-dalillar orqali tilimizning boyligini va qadimiyligini asoslash yana ham ishonchli bo'ladi. Shuning uchun ham kundan-kunga adabiy til ta'sirida turli hil o'zgarishlarga uchrab bir-biriga singishib borayotgan yoki yo'qolib borayotgan o'zbek shevalarini tezlik bilan o'rganib chiqish hamda ularning materiallarini jamlash hozirgi kundagi o'zbek tilshunosligining, shuningdek, o'zbek shevashunosligining muhim ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi. Bunda "O'zbek dialektologiyasi" fanidan bo'ladigan har yilgi rejali amaliyotlar hamda dialektologik ekspeditsiya (safar)lar katta ta'limiy hamda tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

XX asrning boshlaridanoq "O'zbek dialektologiyasi" o'zining o'rganish va tadqiqot olib borish obyektlariga ega bo'lgan fanlardan biri sifatida shakllandi. Uning shakllanishida rus turkolog olimlarining xizmatlari bebahodir. Sababi ularning bu sohadagi amalga oshirilgan birinchi ilmiy va amaliy izlanishlari natijasida shevalarimiz haqida ilk materillar – dalillar to'plandi. Rus turkolog olimlarining o'zbek shevalarini ma'lum bir dasturlar asosida, rejali tartibda o'rganib chiqshmagan bo'lsalar-da, lekin ularning nazariy hamda amaliy fikrlari va to'plab ulguragan materiallari bugungi kunda ham o'zining ilmiy, amaliy ahamiyatini – qimmatini yo'qotgani yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutining dialektologiya bo'limining xodimlari XX asrning 50-80-yillaridan har yili o'zbek shevalaridan materiallar yig'ish uchun dialektologik safar (ekspeditsiya)lar uyushtirib kelishdi. Natijada, katta ilmiy-amaliy qimmatga ega bo'lgan manbalar hisoblanadigan dialektologik materiallar to'plandi.

Bu sohada V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullayev, S.Ibrohimov, M.Mirzayev, A.Shermatov, X.Doniyorov, B.Jo'rayev, A.Aliyev, N.Rajabov, A.Ishayev, Q.Muhamadjonov, Sh.Nosirov, T.Sodiqov, D.Abdurahmonov, M.Turobova, YA.G'ulomov, A.Jo'rayev, K.Nazarov, X.Jo'rayev, I.Farmonov, N.S.G'ofurova, T.Turg'unov, M.Sh.Shoinoyatova, M.Valiyev, A.Mamatov kabi dialektolog olimlar o'zbek shevalari bo'yicha ancha ilmiy-amaliy kuzatishlar olib borishgan va bu kuzatishlar davom ettirilmoqda. Ular o'zlari to'plagan shevaga oid materiallarni, albatta, dialektologik ekspeditsiyaga chiqish bilan to'plashgan. Bu olimlar to'plagan shevaga oid materiallarning bir qismigina monografiya va maqolalar sifatida nashr qilindi, qolganlari ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, respublikamizdagi ko'plab qishloq, shahar va tumanlarning shevalari bo'yicha materiallar to'plangan. Biroq hali kam tadqiq etilgan yohud mutlaqo o'rganilmagan o'zbek shevalari mavjud. Bunday shevalarni topib o'rganish juda zarur va muhimdir. Mana shu shevalarni tadqiq etadigan tadqiqotchilar, albatta, bugungi talabalarimizdan chiqadi. Shu sababli talabalarga "O'zbek dialektologiyasi" fanidan amaliyot o'tkazish katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Chunki ularga dialektologik amaliyot bir umrga kerak bo'ladi – o'qituvchi bo'lganda o'quvchilarning xatolarini kamaytirishda, jurnalist bo'lishganda xalq tiliga mos iboralar qo'llay bilishda, ijodkor bo'lganda esa xalq ommasiga tushunarli fikr-mulohazalarni matbuot sahifalarida berishda, qayd etishda, so'zsiz, dialektologik amaliyot vaqtida ko'rilgan va kuzatilgan holatlar yordam berishi aniq.

"O'zbek dialektologiyasi" fanidan bo'ladigan amaliyot pedagogik amaliyot kabi talaba yoshlarni bo'lg'usi kasbiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga, xalq tiliga hurmat hissini uyg'otishga, sheva vakillari bilan muomala qila olishiga yordam beradi, ya'ni tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Shuningdek, talabalar bu amaliyot vaqtida xalq hayoti bilan, ona yurtning tabiat go'zalliklari bilan yaqindan tanishishadi. Bu esa talabalarda ona vatanga, ona tabiatga mehr uyg'otadi. Xalq tarixiyu taqdiri, ona vatan tarixi, xalqimizning urf-odatlariga va an'alariga nisbatan qiziqishini kuchaytiradi.

Ushbu amaliyotning ilmiy-amaliy tomonlari ham mavjud. Chunki talabalar tomonidan yig'ilgan sheva materiallarini alohida ilmiy to'plam sifatida nashr qilish, talabalarga ilmiy ma'ruza, kurs ishi sifatida berilishi mumkin. Bulardan ko'rinib turibdiki, "O'zbek dialektologiyasi" fanining o'quv amaliyotdan ko'zda tutilgan asosiy maqsadlar quyidagilar: ajratib olingan ma'lum bir shevaning o'ziga xos barcha lingvistik xususiyatlari haqida

mumkin qadar ko'p va sifatli dalillar yig'ish; milliy tilga hurmat tuyg'usini uyg'otish; xalq tili, xalq tarixi va uning hayoti bilan yaqindan tanishish; amaliyotda yig'ilgan dalillar tilshunosligimizni boyitishga hissa qo'shishini his qilish; Ona-Vatanga, el-yurtga muhabbat tuyg'usini uyg'otish; yurt tabiatidan estetik zavq olish; kuzatishlar natijasida ma'lum xulosalar chiqara olish kabi ko'nikma va malakalarni hosil qilish. Bular o'z navbatida talabalarning kelajakdagi ta'limiy, tarbiyaviy va ma'rifiy faoliyatlarini belgilashda ham yordam beradi.

Demak, "O'zbek dialektologiyasi" fanidan bo'ladigan o'quv amaliyotning vazifalari:

1. Soha bo'yicha egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash.
2. Shevalarni adabiy til bilan qiyos qilgan holda o'rganib, ilmiy hamda amaliy jihatdan tadqiq etish.
3. Talabalar dialektologik amaliyot vaqtida egallashgan ko'nikma hamda malakalarni keyinchalik o'qituvchilik kasbida qo'llashlari uchun ko'nikmalar hosil qilish.
4. Amaliyot vaqtida aytilgan talablar asosida to'liq va xatosiz holda tayyorlangan talabalarning dialektologik amaliyoti materiallaridan kelajakda tuzilishi tabiiy hol va ma'naviy ehtiyoj bo'lgan ko'p tomli "O'zbek xalqi shevalari lug'ati" uchun so'zliklarni tanlab yig'ib olish.

Amaliyotning texnika xavfsizligi qoidalar

"O'zbek dialektologiyasi" fanidan amaliyotga borish uchun talabalar bilish kerak bo'lgan texnika xavfsizligi qoidalar quyidagilardan iborat

1. Ko'chada yurganda yo'l harakati qoidalariga amal qilish.
2. Elektr jihozlariga tegmaslik.
3. Elektr asboblarni ehtiyotkorlik bilan ishlatish.
4. Gaz asboblardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish.
5. Taqiqlangan joylarda cho'milmaslik.
6. Ariqdagi suvdan ichish uchun foydalanmaslik.
7. Ta'qiqlangan joylarda yurmaslik.
8. Begona odamlar bilan ortiqcha suhbatlashmaslik.
9. Rahbarning ruxsatisiz kunlik amaliyotga chiqmaslik.
10. Ruxsatsiz yakka o'zi chiqib ketmaslik.
11. Jamoat tartibini buzmaslik, jamoani hurmat qilish.
12. Sheva vakillari nutqini hurmat qilish.
13. Noo'rin gapirish va qo'pol holatlarda yurishdan saqlanish.

"O'zbek dialektologiyasi" fani amaliyotiga tayyorgarlik ko'rish

"O'zbek dialektologiyasi" fanidan amaliyot folklor fanidan bo'ladigan amaliyot bilan birgalikda bir oy ichida o'tkaziladi. Unga tayyorgarlik ko'rish, o'tkazish va yakunlash reja asosida olib boriladi. Ushbu amaliyotga tayyorgarlik ko'rishni bir oz oldindan boshlash kerak, ma'ruza va amaliy ishlar olib borish davrida yozgi dialektologik amaliyotning maqsad hamda vazifalari tushuntirib boriladi, yo'l-yo'lakay amaliyotga doir bo'lgan ayrim metodik va tashkiliy ko'rsatmalar ham berib boriladi.

Mazkur amaliyotdan ko'zlangan maqsadni amalga oshirish uchun eng avval talabalar bunga tayyor bo'lishlari kerak. Dialektologik amaliyotga qatnashish va uni samarali o'tkazish uchun talabalardan quyidagilar talab qilinadi:

1. Soha doirasida puxta ilmiy-nazariy bilimga ega bo'lish.
2. Transkripsion yozuv tizimini yaxshi o'zlashtirish va uni amaliyot davrida qo'llay bilish.
3. Yozuvning zamonaviy texnikasini yaxshi egallash va unga amal qilish.
4. Shevalardan material yig'ish usul (metod) laridan xabardor bo'lish kerak.
5. Shevani o'rganish uchun reja, dastur va so'roqlikka ega bo'lish.
6. Magnitofon va fotoapparatdan o'z vaqtida o'rinli foydalana olish.
7. Tashqi qiyofasi hamda kishilar o'rtasida o'zini tuta bilishi bilan o'rnak bo'lishlari shart.
8. Joylarda kishilar bilan sodda, samimiy, ma'naviy va madaniy munosabatda bo'lish.
9. Shevasi o'rganilayotgan hududning madaniy-iqtisodiy ahvoli, etnolingvistik xususiyatlari va geografik o'rinlashuvidan ma'lum darajada xabardor bo'lishi tabiiy holdir.

Bu amaliyotga tayyorgarlik ko'rishning birinchi bosqichi o'qituvchi tomonidan bajariladi. O'qituvchi yohud guruh rahbari talabalarni to'plab, mazkur amaliyotning maqsad va vazifalari, uni o'tkazish tartiblari, amaliyot uchun kerak bo'ladigan barcha narsalar haqida tushuncha beradi. Aytilgan narsalar talabalarda amaliyotga chiqish davrigacha tayyor bo'lishi lozimligi uqtiriladi. Shuningdek, fakultet dekanati va kafedra bilan kelishilgan holda dialektologik amaliyotga bag'ishlangan kichik anjuman o'tkaziladi. Ushbu anjumanda avval o'tkazilgan amaliyotlarning Yutuq va kamchiliklari hamda bo'lajak amaliyotning maqsadi, yo'nalishlari kabi masalalar yoritib beriladi.

Shundan so'ng rahbar amaliyot o'tkazilishi lozim bo'lgan tuman haqida axborot beradi. Bunda mazkur tuman hududidagi qishloqlar va har bir qishloq aholisining qaysi lahja va shevaga oid ekanligini, amaliyot davrida talabalar, asosan, qanday narsalarga o'z e'tiborlarini qaratishi lozimligi to'g'risida ko'rsatmalar, tavsiyalar beradi.

Talabalarga magnitofon, fotoapparatlardan foydalanish haqida ko'rsatmalar berilib, ular bilan amaliy ishlar bajarilishi ham o'rindir.

Fakultet dekanati dialektologik amaliyotga tayyorgarlik ko'rish davrida:

1. Shu sohaga oid fakultativ kurs va ushbu amaliyotga bag'ishlangan anjuman o'tkazishga imkoniyat topadi.

2. Dialektologik amaliyot o'tkazilishi lozim bo'lgan tuman va tashkilotlar bilan aloqa bog'laydi.

3. Amaliyot davrida esa uning borishini vaqti-vaqti bilan nazorat qilib boradi.

Mazkur amaliyotga tayyorgarlik ko'rish, o'tkazishga oid barcha tashkiliy va metodik-uslubiy ishlarni amalga oshirishda kafedra bosh-qosh bo'ladi. Avvalo, kafedra dialektologik amaliyot o'tkazilishi lozim bo'lgan ob'ektlarni belgilaydi va rejalashtiradi, amaliyot raxbarlarini aniqlaydi. Talabalarni guruhlariga ajratadi va har bir guruhga bitta raxbar tayinlaydi. Har bir guruhning bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar aniq belgilab beriladi¹.

Guruh rahbarlari amaliyot boshlanishidan avvalroq belgilangan hududlarga borib, o'sha hududdagi tuman, tashkilot, xo'jalik raxbarlari bilan uchrashadilar va talabalarining yotish joylari, ovqatlanish manbalari haqida kelishib oladilar.

Dialektologik amaliyotga tayyorgarlik ko'rish davrida yana quyidagi ishlarni amalga oshirish ham maqsadga muvofiqdir:

-Dialektologik amaliyot o'tadigan hududdagi mahalliy tashkilotlarga universitet yoki institut ma'muriyati tomonidan rasmiy xat yozish.

-Kuzatilishi lozim bo'lgan hududni aniq belgilab olish.

Ob'ektgacha boradigan transport vositalarini aniqlash. Agar universitet yoxud institut tomonidan transport bilan ta'minlansa, uning xujjatlarini rasmiylashtirish.

-Magnitofon va uning lentalarini, fotoapparat hamda plyonkalarini tayyorlash.

-Talabalarga amaliyotga borish uchun ajratiladigan mablag' hisob-kitobini amalga oshirish.

-Talabalarining rahbarlariga xizmat safari hujjatlarini rasmiylashtirish. Talabalar joylashishi lozim bo'lgan ob'ekt va undagi ovqatlanish manbalarini aniqlash.

-Har bir talaba o'zi uchun ko'rpa-to'shak anjomlarini tayyorlash.

-Har bir talabalar guruhida meditsina aptekhasining bo'lishi shart yoxud zarur dorilar bilan ta'minlash shart.

-Talabalar dialektologik amaliyot davrida kerakli bo'lgan barcha o'quv qurollari va vositalarni tayyorlash lozim. Bunda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak: amaliyot oxirigacha etadigan daftar yoki qog'oz, qalam va ruchka, magnitofon, fotoapparat (imkoniyati borlarga), sheva va uning ko'rinishlari bo'yicha materiallar yig'ish uchun so'roqlik va dastur, kerakli adabiyotlar.

"O'zbek dialektologiyasi" fani amaliyotini tashkil qilish va o'tkazish

Ushbu amaliyotning samaradorligi, tartibli o'tishi uning rejali tashkil qilinishiga ko'p tomonlama bog'liq. Uning o'tkazilishi tartibi o'rni va o'rganish ob'ektlari oldindan rejalashtirilib, kafedra majlisida tasdiqlangan bo'ladi. Ushbu rejada amaliyotning boshlanishidan yakunlanishigacha bo'lgan vaqt ichida qilinadigan ishlar o'z ifodasini topgan bo'ladi. Amaliyotning tashkiliy qismi rahbar zimmasiga anchagina ma'suliyat yuklaydi. Talabalarining belgilangan manzilga etkazishda rahbar bosh-qosh bo'ladi. Belgilangan tumanga kelgan guruh rahbari quyidagilarni amalga oshiradi:

- 1. Tuman hokimligiga uchrab, dialektologik amaliyot o'tkazish uchun yetib kelishganini ma'lum qilish.

- 2. Tuman hokimligidan amaliyotni samarali o'tkazish uchun ma'naviy va amaliy yordam so'rash.

- 3. Amaliyot o'tkazish uchun belgilangan hududga etib kelgan talabalarining guruhlariga bilan umumiy yig'ilish o'tkazadi va amaliyot davridagi ishlarning bajarilishi to'g'risida hisobot berish.

- 4. Har bir guruhning yotish va ovqatlanish joyini aniqlash. Hamma talabani bir erga joylashtirish imkoni bo'lsa, ularning ovqatlanirish manbalarini tashkillashtirish.

- 5. Har bir guruhning o'rganish hududini aniq va ravshan qilib belgilash. Talabalarining har biriga aniq topshiriqlar berish.

Rahbar har bir guruhning o'rganish ob'ektiga borib, talabalarining ish sharoiti bilan tanishib chiqadi hamda zarur uslubiy tavsiyalarni beradi. Talabalar belgilangan tartib-intizomga amaliyotning oxirigacha qat'iy amal qilishlari shart.

Amaliyot vaqtida talabalar o'zlari yashayotgan va o'rganayotgan hududning aholisi bilan yaqindan do'stona aloqalar o'rnatishadi. Ular bo'sh vaqtlarida hamda dam olish kunlarida o'sha erdagi tashkilotlarning

¹ Iqtisodiy sharoitga qarab ba'zantalabalarga o'zlari yashagan hududning sheva materiallarini yig'ish topshirig'i ham beriladi. Ushbu holda ham bu ishda berilgan "Shevalarni o'rganish dasturi"ga amal qilinib, amaliyot materiallari to'planadi. Belgilangan muddatda amaliyot rahbarlariga talabalar hisobot topshirishadi.

qishloq xo'jalik ishlariga yordamlashsalar, foydadan holi bo'lmaydi. Buning evaziga xo'jalik talabalarni qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlashi mumkin.

Talabalar ushbu amaliyot davomida shevaga oid materiallar yig'ish bilan birga, shu hududning diqqatga sazovor joylari, tarixiy obidalar, muhim voqealari haqida ma'lumotlar to'playdi, tarixiy joylarning fotonusxasini oladilar. Uyushtirilgan kecha, suhbat va jamoat ishlari suratga tushirib boriladi. Har bir talaba amaliyot yakunida bular asosida albom tuzib, amaliyotga oid hisobot bilan birga kafedraga topshiriladi.

Rahbar vaqti-vaqti bilan talabalarining ishlari bilan tanishib, kerakli uslubiy tavsiyalarni berib boradi. Talabalar ham yo'l-yo'lakay tug'ilgan savollar hamda muammolari bilan rahbarlariga murojaat qilib turadilar. Shu o'rinda talabalar bilan suhbatlashgan har bir kishining pasportiga e'tibor berishni yana bir bor ta'kidlash lozim.

Ba'zan materiallar talabalarining o'zi tushunadigan holatda yozilishi mumkin, biroq uni keyinchalik tartibga solib, qayta yozib olishlari kerak bo'ladi. Amaliyot yakunida yig'ilgan shevaga oid materiallar tartibga solinib, kamchiliklari to'g'irlanadi. Materiallar rahbarning umumiy hisoboti bilan birga kafedraga topshiriladi.

Shevalarni o'rganish va materiallar to'plash usullari

Dialekt va shevalarni o'rganish tajribasi shuni ko'rsatadiki, har qanday tilning shevalarini o'rganishda, birinchi navbatda, shu shevani o'rganish uchun mukammal dasturga ega bo'lishi lozim. Bu dastur milliy til tarkibidagi barcha dialektlarning lingvistik xususiyatlarini o'zida qamrab olishi va tadqiqotlarga yo'llanma beruvchi vosita bo'lishi shart. Dasturlar mavzular bo'yicha tuzilib, tilshunoslikning barcha qismlari alohida-alohida holda o'z ifodasini topishi maqsadga muvofiqdir. Sababi, puxta va pishiq tayyorlangan shevalarni o'rganishni har tomonlama samarali chiqishiga ko'mak beradi.

Shevalarni o'rganish xarakteri, o'rganish obyektni tanlash hamda uni kuzatish uslubiyati dialektologning oldiga qo'ygan vazifalaridan kelib chiqadi. Chunki dialektolog ajratib olingan shevani bir tomonlama yoki har tomonlama tekshirishi mumkin. Shuning uchun ham uning kuzatish va o'rganish usullari turlicha bo'ladi. O'zbek dialektolog olimlarining tajribasiga suyanan holda ma'lum bir shevalarga oid lingvistik faktlarni quyidagi usullar yordamida to'plashni talabalarga tavsiya qilish mumkin:

Eshitish va xotirada saqlash orqali. sheva vakili yoki vakillari bilan suhbatlashib bo'lgandan so'ng suhbatni xotirada qayta tiklash bilan qayta yozib olish mumkin bo'ladi. Bu ancha murakkab usul.

Bog'liqli materiallarni, zarur hisoblangan alohida jumalarning yozib olish orqali. Agar bu yozib olish usuli so'zlayotgan kishi o'z nutqiga e'tibor bermayotgan bo'lsa, u ancha samarali bo'ladi. Chunki so'zlovchi o'zining nutqiga kimdir e'tibor berayotganini, ayniqsa, yozib olinayotganini sezsa, uni yaxshilashga, tuzatishga, ko'proq adabiy tilda gapirishga harakat qiladi. Bu hol ma'lum bir shevaga xos xususiyatlarni to'laligicha aks ettirishga to'sqinlik qiladi.

Shevalarga oid materiallarni qo'lda yozish talabadan katta mehnat talab qiladi, ya'ni talaba matnni, nutqni xatosiz va tez, to'lig'icha aniq yozish uchun transkripsion yozuv tizimini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi hamda tez yozish texnikasini o'zlashtirgan holda amalda qo'llay oladigan bo'lishi lozim. Aks holda qolib ketgan jumla yoki so'zlar, noto'g'ri yozib olingan lingvistik faktlar sheva to'g'risida noto'g'ri xulosalarga kelishga sabab bo'ladi.

So'zlovchi nutqini yozib olishda talaba uning barcha xususiyatlariga e'tibor bera olmasligi mumkin. Chunki ularda ma'lum ko'nikma va tajribalar kam. Bunday hollarda talabaning hali malakali dialektolog emasligini hisobga olib, o'qituvchi ularning ishini osonlashtirishi, aniqlashtirishi mumkin. Bu hol bir necha yo'l bilan amalga oshiriladi. Birinchidan, guruhdagi har bir talabaga alohida-alohida topshiriqlar berish mumkin. Masalan, bir talaba o'rganish ob'ektini faqat fonetik tomondan o'rgansa, ikkinchi talaba uning morfologik tomonlariga alohida e'tibor beradi. Shuningdek, leksik va sintaktik xususiyatlar ham alohida o'rganiladi. Bunday hol talabaning ishlari ma'lum darajada osonlashtiradi va aniqlashtiradi. Ikkinchidan, magnitofon lentasiga sheva vakili nutqining yozib olinishi orqali. Bu holatda o'rganiladigan shevaning barcha xususiyatlari aks etadi, albatta. Magnitofon(lentasi)ga yozib olingan materiallardan esa shevaning xohlagan lingvistik xususiyatlarini ajratib olish mumkin. Talaba shevaga oid materiallarni daftarga yozib borgan ma'quldir. Shunday holda olingan material to'liq saqlanadi.

Uchinchidan, amaliyot o'tkazish dasturi bo'yicha, shuningdek, maxsus tuzilgan so'roqlardagi savollar bo'yicha so'rash orqali. Bunda har bir savol qarshisiga uning javobi yozib qo'yiladi. Agar ko'p bo'lsa, alohida varaqdan yozish mumkin. Dialektlarni o'rganish tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu usul shevalarning xususiyatlarini o'rganishdagina yaxshi samara berishi mumkin.

Demak, har qanday holatda ham shevaga oid lingvistik, lingvogeografik xususiyatlarni o'zida ifodalovchi materiallarni yig'ish talabalarining ilmiy-nazariy bilimiga, mahoratiga va tayyorgarligiga bog'liq. Chunki talaba amaliyotda nimalarga e'tibor berishi, nimalarni yozib olishi kerakligini yaxshi bilishi va obyektni iloji boricha ko'proq turli mavzulardagi suhbatlarga torta bilishi lozim.

Talaba obyektni – sheva vakilini suhbatga tortishi uchun quyidagi mavzularda so'z ochishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

Qishloqda yashovchilarning qaysi o'zbek guruhiga mansubligi.

Ushbu hudud tarixi to'g'risida.

Mazkur hududning nomining kelib chiqishi va ma'nolarini imkoniyat doirasida izohlash.

Qishloq vakillarining o'ziga xos urf-odatlar.

O'zbek xalqi tarixidagi muhim voqealar shu yerlik aholi nutqi misolida izohlab ko'rsatish.
 Sheva vakillariga xos bolalar o'yinlarini yozib, qanday borishini izohlash.
 Sheva vakillariga xos o'yinlarning nomi va ularning boshlanishi, tugashini talqin etish.
 Sheva vakillariga xos kasb-hunarlarning nomini yozib, ularni sharhlash.
 Xalqaro ahvolga sheva vakillarining munosabatini qayd etish..
 Bu hudud aholisi nutqida uchrovchi xalq qo'shiqlari, ertak, doston va termalar.
 Tabiat hodisalarini izohlash.
 Dehqonchilik va chorvachilik muammolarini yozib olish.
 Qishloq vakillari shug'ullanadigan kasb-hunarlarda haqida ma'lumotlar yig'ish.
 Bu hududda yashovchilarning milliy qadriyatlarini sanab, izohlash.
 Ushbu hududdagi to'y-tomoshalar va ularning o'tkazilishini izohlab bering.
 Shu kunning muhim voqealariga sheva vakillarining munosabatini hisobga olish.
 Sheva vakilining tarjimai holini so'rash hamda kasbini so'rash.

Talaba obyekt – sheva vakilining nutqini o'rganish uchun tanlashda quyidagilarga e'tibor bermog'i kerak: sheva bo'yicha materiallar yig'ish uchun shu shevaning maxsus ma'lumotga ega bo'lgan, nafaqaga chiqqan yoki umuman savodi bo'lmagan vakillarini(ularning yoshi 50-60 va undan yuqori bo'lishi maqsadga muvofiq) tanlash maqsadga muvofiq. Bunday kishilar nutqi adabiy til ta'siriga kuchli berilmagan bo'lib, unda shevaning aniq xususiyatlari saqlanib qolgan bo'ladi. Bu hol shevaning fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini mukammal aks ettirishda juda yaxshi samara beradi. Leksik xususiyatlarni esa shevaning yuqoridagi vakillaridan ham so'rab-surishtirib olish mumkin.

Talaba sheva vakilidan material to'plar ekan, materialning pasportini, ya'ni asosiy hujjatini to'ldirishi shart. Agar sheva vakilining gaplari magnitofonga yozilsa, unda ham aks etmog'i lozim. Aks holda to'plangan materialning obyekti – egasi noaniq bo'lib qoladi. Material uchun pasport to'ldirish sharoitga qarab olib borilsa, yaxshi bo'ladi, Chunki ba'zi kishilar bor – u haqida o'zidan biron narsa so'rasangiz jim bo'lib qoladi. Boshqa bir odamlar borki, u haqida biror narsa so'rasangiz, bemalol gapirib beraveradi.

Har bir olingan materialning pasportida quyidagilar aks etgan bo'lishi maqsadga muvofiq hisobalanadi:
 Pasportning tartib raqami (masalan, 1-pasport)

- Viloyati.
- Tumani.
- Qishloq kengashi nomi.
- Qishloq, shahar yoxud posyolkasi.
- Sheva vakilining ismi-sharifi.
- Tug'ilgan yili.
- Ma'lumoti, qayerlarda o'qigani, ishlagani.
- Qaysi yozuvni bilishi
- Ishlamagan bo'lsa, sababi.
- Kasbi hamda ish joyi.
- Materialni yig'ib olgan shaxsning ismi-sharifi.
- Material yozib olingan kun, oy va yil.

Bir kishidan bir necha material olish mumkin, shuning uchun bitta pasport to'ldirilsa bo'ladi. Boshqa sheva vakillaridan material yozib olinganda esa, albatta, yangi tartib raqamli hujjatni, ya'ni pasportni to'ldirish shart.

Sheva vakilidan yozib olingan materialning pasporti to'ldirilgach, o'rganilayotgan obyekt haqida ma'lumot berilishi lozim. Yoki oldin sheva haqida ma'lumot berilib, so'ngra bu asosiy hujjat to'ldirilsa bo'ladi. Bunda material yig'ilayotgan joyning eski va yangi nomlari, qishloq nomining kelib chiqishi haqidagi rivoyat va farazlar, o'rganilayotgan obyekt tuman markazidan va shahardan, temiryo'ldan qanchalik masofada joylashgani, shu hududdagi sheva vakillaridan boshqa yana qaysi millat vakillari yashashi, sheva vakillari qaysi o'zbek urug'iga mansubligi, bu shevaning qaysi lahjaga oidligi, material olinayotgan joyning madaniy va iqtisodiy hayoti, urf-odatlar va hokazolar qisqacha o'z ifodasini topadi. Bular o'rganilayotgan sheva haqida to'liqroq tasavvur hosil qilishimizga yordam beradi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan tashkiliy ishlar amalga oshirilgach, sheva bo'yicha materiallari to'planib, transkripsiya asosida yoziladi.

Transkripsiya va sheva materiallarini transkripsiyada yozish ko'nikmalari to'g'risida

Talaba butun amaliyot davomida material to'plash jarayonida transkripsion yozuv tizimidan foydalanadi. Transkripsiya bilan yozilgan materiallar shevaning takrorlanmas xususiyatlarini ko'rsata oladi.

Shuning uchun ham transkripsion yozuv uchun zarur bo'lgan harflarni va shartli belgilarni qayd qilib o'tishni lozim deb topdik. Talaba amaliyot vaqtida bundan bemalol foydalanish mumkin. Transkripsiya bilan yozish uchun quyidagi transkripsion belgilar ishlatiladi:

Unlilar:

a – til oldi, lablangan, umumturkiy tillarga xos unli. Adabiy orfografik a dir. Bu tovush singarmonizmni saqlagan o'zbek shevalarida hamda ayrim f'arg'ona tip shevalarida mustaqil fonema sifatida ishlatiladi: bulaq, q'shlaq, soraq. Baynalminal so'zlarda rus tilidagi a tovushiga mos keladi.

l – til orqa, lablangan, keng unli. Adabiy orfografik o: *ldam, erzlen, soray* (Toshkent), *ldam, arzln // azzln, saray* (Namangan).

ə - til oldi, lablanmagan, o'rta-keng unli. Adabiy orfografik a: (Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, ToShkent Shevalarida ishlatiladi).

e – til oldi, lablanmagan, o'rta keng unli. Adabiy orfografik e (*e*), *ke(l)*, *ber*, *end'*, *echk'*, *erk*.

е – til oldi, lablanmagan, e bilan e o'rtasidagi bir tovush ("e"laShgan e), "ulautli" Shevalarda uchraydi: *kemad'*, *xəmxln, ctlnln* /kelmadi, Xalimaxon, erta bilan/.

u – til orqa, lablangan, tor unli. Adabiy orfografik u: *tuxum, urug'*, *xlt'n, hurmət, xursən(d)*.

ү – til oldi, lablangan, tor unli. Adabiy orfografik u: *uye, uke, uchum, tush, kulol, gul*.

o – til orqa, lablangan, o'rta-keng unli. Adabiy orfografik o': *ort.q//ort.;*, *tog'r'*, *oq, toqq'z*.

ö – til oldi, lablangan, o'rta-keng unli. Adabiy orfografik o': *oy, koze, toverd'*, *gozel, koz*.

' – oraliq, tor, lablanmagan unli. Adabiy orfografik i: *b'z, s'z, b'l, et'*, *'ker', k'y'k, p'yoz*.

i – til oldi, tor, lablanmagan unli. Adabiy orfografik i: , bu tovush asosan sinargmonizmni saqlagan shevalarda mustaqil fonema tarzida qo'llanadi: *tetik, ish, tiymə* (tetik, ish, tegma).

ы – til orqa, tor, lablanmagan, umumturkiy tillarga xos unli, rus tilidagi ы tovushiga nisbatan ancha chuqur talaffuz qilinadi. Singarmonizmni saqlagan shevalarda mustaqil fonema sifatida, singarmonizmni yo'qotgan shevalarda fonemaning varianti sifatida uchraydi: *tyñchl'k, həqyl, əvəz* (tinchlik, aql, og'iz).

– Shahar va shahar tip shevalarda chuqur til orqa q, g', h tovushlari bilan yondosh kelganda uchraydigan, indifferrent ' va til orqa ы o'rtasidagi tovush: *q'z, m'x, g'sht, q'rq, t'g', q'sh*.

e, o, e unililari so'z boshida diftonglashganda quyidagicha transkripsiya qilinadi:

1. Diftonglashishning maksimal darajasi -ya yoki ia, ve, uo singari ifodlanadi: *yeshki, velsə, vottu, uosha* (echki, o'lsa, o'tdi, o'sha).

2. Diftonglashishning kuchsizlanishi – /y/e yoki /i/e, /v/ yoki /u/o singari ifodalanadi: /v/ z, /v/, ttuz, /u/ot, /i/et (o'z, o'ttiz, o't, et).

b, d, z, m, n, p, r, s, t, sh, k, x, h undoshlari o'zgarishsiz ishlatilaveradi.

v – lab-lab undosh v. Lab-tish uchrab qolsa, alohida izohlash kerak.

y – ruscha y ga nisbatan siqiroq talaffuz qilinadigan tovush: yoz, y xsh', toy, oy, tayyor (yoz, yaxshi, toy, oy, tayyor).

g' – chuqur til orqa, frikativ: tog', tog'a, g'oz, bog''z (tog', tog'a, g'o'za, bo'g'iz).

g'' – chuqur til orqa, portlovchi, g' fonemasining kombinator varianti: tong'uz, qorong'', jamg''r (to'ng'iz, qorong'i, yomg'ir).

g – sayoz til orqa, portlovchi undosh.

g'' – dan ko'ra sayozroq, yumshoq talaffuz etiladigan tovush: gul, keg'n, t'g'n, og y, g yo (gul, keyin, tiyin, o'gay, go'yo).

j – til oldi, portlovchi, affrikat: j: judə, jorə, chl/j, jly (juda, jo'ra, jo'ja, joy).

j. – ruscha j ga mos keladigan tovush.

l – til orqa l: *qol, qel, yelg'en, yelg''z, yeng''z*.

l' – til oldi, yumshoq talaffuz etiladigan tovush: *kol, konul, gul, kor-yluk* (ko'l, ko'ngil, gul, ko'raylik).

н – sayoz til orqa, sonor. Adabiy orfografik ng: *аң, кең, , қоң, тәңә, үһәң, бер'ң, тең* (oling, keling, tanga, yanga, boring, teng).

: an (oling, qo'ying).

f – lab-lab f. Lab-tish f uchrab qolsa, alohida izohlash lozim.

q – chuqur til orqa, affrikat. q va h fonemalari kam farq qiladigan shevalarda uchraydi: qat'n, qat, qalq, qojay'n (xotin, xalq, xat, xo'jayin).

Shartli belgilar

: - unililarning cho'ziqligini ko'rsatadi va tushib qolgan unililar o'rnida ishlatiladi: su:, etu:, sh'r (suv, etik, she'r).

:: - unililarning ultracho'ziqligini bildiradi: ma: etme:: (men aytmayman), se::rtudd' (saxar turdi), on te:: (o'n tanga).

< - ga o'tganini bildiradi: v p olov-olop

> - dan kelib chiqqanini, o'zgarganini bildiradi: g'ot'y//g'ot'k xo'tik

// - tenglik, barobarlikni va tovushlarning almashinishini anglatadi: tu:// tuk (etik), ek//ex//eg' (u yog').

[...] transkripsiya qilingan tovush, affiks va so'zni umumiy matndan ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Kursiv – turli darajadagi kuchsizlanish va reduksiyani ko'rsatadi.

Shevalarni o'rganish dasturi

Har bir shevaning o'ziga xos xususiyatlarini aniq ochish uchun amaliyotga borgan talabalar qo'lida maxsus shevani o'rganishga mo'ljallangan dastur bo'lishi zarur. Bu dastur esa ma'lum bir hududdagi sheva vakillari uchun xos bo'lgan dialektal birliklar tizimini tashkil etuvchi barcha xususiyatlarini o'zida aks ettirishi kerak. Albatta, dastur bo'yicha yig'ilgan materiallar hamma vaqt ham shevani har tomonlama aks ettira olmaydi. Lekin u o'rganuvchilarni ma'lum bir sistema – tizimda ishlashini ta'minlaydi, ma'lum bir maqsadga qarab yo'nalishini ko'rsatib turadi.

Biz o'zbek dialektologiyasida qo'llanib kelingan dasturlar, so'roqliklar, metodik tavsiyalarga tayangan holda tuzilgan quyidagi dasturni shevalardan material to'plash uchun talabalarga tavsiya qilamiz. Dasturda tilshunoslikning har bir bo'limi alohida-alohida tarzda beriladi.

Shevalar fonetika bo'yicha materiallar to'plash

O'zbek shevalarining fonetik xususiyatlarini o'rganishda talablardan jiddiy va mashaqqatli mehnat talab qilinadi. Chunki u sheva vakillarining nutqini har tomonlama sinchiklab o'rganishi, buning uchun esa shevaning fonemalar tuzilishini belgilashi, har xil sharoitlarda bo'ladigan fonemalarning fakultativ va kombinator-pozitsion variantlarini aniqlashi va ularning tarixiy taraqqiyot bosqichlarida mavjud bo'lgan tarixiy-fonetik evolyutsiyani kuzatish talab qilinadi.

Dasturdagi har bir punkt tushunarli bo'lsin uchun, shu masalaga oid misollar namunasi ham berildi. Amaliyot davomida talabalar shu punktlarning har biriga aniq javob topa olsalar, o'rganilayotgan shevaning asosiy fonetik xususiyatlari ma'lum darajada yoritilgan bo'ladi.

1. o-lashish va a-lashishning tarqalishi:

a) bir bo'g'inli o'zaklarda: ot//at, oz//az, bosh//bash kabi;

b) ikki bo'g'inli o'zaklarda: bola//bala, ota//ata, bozor//bozar//bazar//bazar singari.

v) ko'p bo'g'inli so'zlarning keyingi bo'g'inlarida: qaldo'rg'och//qaldo'rg'ach, yaxsho'roq//yaxsho'raq kabi.

2. Birinchi darajali cho'ziq unilarning mavjud yoki mavjud emasligi: at//a:d, yaz//ya:z, ot//o:t/o:d singari.

3. Ikkinchi darajali cho'ziqlik – ultra cho'ziqlik borligi: shahar//sha:r kabi.

4. Lab garmoniyasining mavjud yoki mavjud emasligi:

a) konglum//kongulum//kongilim//ko'ngl'm singari;

b) turuptu//turupt'//tur'pt' kabi;

v) ustude//utide//ustde singari.

5. Kontrast juft unilarning mavjudligi yoki mavjud emasligi: /a o, u o', * i, */. Masalan, bol/bol, qol/qol kabi.

6. Cho'ziq hamda qisqa unilarning mavjud yoki mavjud emasligi.

7. So'z boshida o'rta-tor va o'rta-keng unilarning diftonglashuvi /ie, uo, uo'/: a) ie – iechki//ieshki kabi;

b) uo – uon//von, uog'li singari;

v) uo' – uo'rdak//uo'rdek//uo'rday kabi.

8. So'z boshida dj/j/i hodisasining tarqalishi: /djoq-joq-yoq/, /djol-jol/yol/ singari.

9. Yumshoq va qattiq unilarning mavjudligi. Ular so'zlarni farqlashda ishlatiladimi?

10. A//E mosligi uchraydimi? /ayel-ayol, abir-obro', majoz-mijoz, palenchi-palonchi/ kabi.

11. O'//E mosligi uchraydimi? /o'tuk-etik, o'chki-echki/ singari.

12. O' unlisi U unlisi bilan almashadimi?

13. E//U mosligi uchraydimi? /duvona-duvol/devol/ kabi.

14. Tursun, turg'un, kunduz, chumchuq kabi so'zlardagi ikkinchi bo'g'indagi unli qanday talaffuz qilinadi?

U va A tovushlarining almashinishi: djavop-djuvop, yevosh-yuvosh-djuvosh kabi.

E//I hodisasi uchraydimi? /ergash-irgash, endi-indi/ singari.

E//U hodisasi mavjudmi? /devor-devol-duvol/ kabi.

U//O' hodisasi uchraydimi? /uy-o'y, kuylak-ko'ylak/ singari.

E//O', O hodisasi mavjudmi? /echki-o'chku-ochku, etik-o'tuk/ kabi.

So'z boshida i unlisining tushish hodisasi: /y'r'k-r'k, y'g'rma-'g'gma-eg'rma, y'l-'l singari.

X va H mavjudmi? /hamma-xamma, mehnat-mexnat/ kabi.

F tovushining mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash.

Tor unilardan so'ng til orqa undoshlarining mavjudligi yoki tushishi: /sar'q-sar', kichik-kichi/ kabi.

So'z boshida /k-g/ va /t-d/ hodisalarining mavjud yoki mavjud emasligi: /koz-goz, kun-gun, tush-dush, tovush-dovush, tutun-dutun/ singari.

/g'-v/ hodisasi: /tog'-tov, og'iz-oviz/ kabi.

/p-v/ hodisasi: /top-topaman-tovaman/ singari.

/b-p/ hodisasi: /butun-putun/ kabi.

/d-t/ hodisasi: /zavod-zavut, baland-balant/ singari.

/b-m/ hodisasi: /burun-murun, bunday-munday/ kabi.

/y-g//g' hodisasi yoki /g-y/ hodisasi bormi? /mayiz-meg'z, kigiz-kiyiz/ singari.

/k/q-y, g/g'-y/ hodisasi: /tegdi-tegd', tiydi-t'yd', y'g'-n-dj'y'n/ kabi.

/ng-y/ hodisasi: /atang'z-eteng'z-atay'z-otey'z/ singari.

/t-ch/ hodisasi: /ch'sh-t'sh, chusht-tusht/ kabi.

/i-e/ hodisasi: /xil-xel, tig'-teg', mix-mex/ singari.

/i-u/ hodisasi: /altin-altun, xotin-xotun, temir-temur, borsin-borsun/ kabi.

/q/ning sirg'alish hodisasi: /aq-ak, ax-ox, ko'k-kok/ singari.

/q-g'/x/ hodisasi: /toqsan-toxsan, ch'qt'-ch'g'd', aq'-ag'/' kabi.

/x-q/ hodisasi: /xotin-qat'n-xat'n/ singari.

/k-v/ hodisasi: /old'k-olduv, kett'k-kettuv, tuzuk-tuzuv/ kabi.

/k-y/ hodisasi: /terek-terey, bilek-biley/ singari.

So'z boshida /h/ tovushining orttirilish: /ayvan-hayvan, arra-harra/ kabi.

/k-g/ hodisasi: /ekin-egin, ekip-egib/ singari.

So'z larga egalik affiksi qo'shilganda /p-b/ hodisasining hosil bo'lishi: /qap-qap'-qap'm/ (qop) kabi.

So'z oxirida tor unlilardan keyin /q,k/ tovushlarining o'zgarishi: /sar'q-sar'-saru-saruv-saru-/ singari.

To'liq progressiv assimiliyasiya hodisasining mavjud yoki mavjud emasligi hodisasi: /qo'shn'-qo'shsh', bizni-bizzi-b'z', tem'm'-tem'm', ketd'-kett'/ kabi.

To'liq regressiv assimilyasiyaning mavjud yoki mavjud emasligi hodisasi: /orn'm-onn'm, etles-elles, bord'm-bodd'm/ singari.

/ld-ll/ tovushlarining o'zgarishi: /bo'ld'-bo'll', keld'-kell', old'-oll'/ kabi.

Metateza hodisasi: /deyre-daryo, ayleney-aylanay/ singari.

So'z orasida /n/ ortishi yoki ortmasligi: /ichide-ichinde, tushide-dushinde, qol'de-qol'nde/ kabi.

So'z boshida /q-k/ hodisasi: /qalamp'r-kelemp'r, kant-kent, qelem-kelem/ singari.

/b-m/ hodisasi: /buni-muni, kesbi-kasbi/ kabi.

/s-ch/ hodisasi: /soch-choch, soch'q-choch'q-chachoq-sechoq/ singari.

/v/ tovushining tushishi natijasida ikkinchi darajali cho'ziqlikning vujudga kelishi hodisasi: /ovqet-o:qet, hovl'-ho:l'/ singari.

Shevada quyidagi fonetik hodisalardan qaysisi uchraydi? Masalan: /erslon-eslon, qerzdor-qezdor, turd'-tudd', kertoshka-kett'shke, qersh'-qeshsh', Tursun-Tussun/ singari.

/bm-pp/mm/ hodisasi: /boribman-borippan-borimman/ kabi.

So'z boshida /v,y/ hodisasi orttirilishi hodisasi: /osma-vosma, ot'r-vot'r, ene-ona-yene/ singari.

So'z ichida va oxirida /h/ tovushining tushirilishi hodisasi: /sheher-she:er, gunoh-guno:, ahmet-e:met, nikoh-niko:/ kabi.

/g',q,k/ tovushlarining tushishi natijasida ikkinchi darajali cho'zliqning vujudga kelish hodisasi: /q'shloqlik-q'shlo:lik, bog'l'q-bo:l'q, ochoq-ochol'/ singari.

/f-p/ hodisasi: /falonch'-pelonch', febr'ke-pebr'ke, fot'me-pot'me, oftob-optob/ kabi.

/x-g'/ hodisasi: /xoroz-g'oroz, xotik-g'otik, xəznə-g'aznə/ singari.

/t-h/ hodisasi: /əhləs-ətləs, əhlə-xətlə/ kabi.

So'z o'zagida ayrim tovushlarning takror kelishi uchraydimi? /tepə-teppə, həqym-həqqym/ kabilar.

Yuqoridagilardan tashqari shevaning o'ziga xos har qanday fonetik hodisalar uchrasa, ularni alohida qayd etish lozim.

Shevalar morfologiyasi bo'yicha materiallar to'plash

Shevalarga xos xususiyatlar so'z turkumlari va mavjud grammatik kategoriyalar bo'yicha o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda ko'proq shevaning morfologik xususiyatlarining adabiy tildan farq qiluvchi tomonlari aks ettirilsa, yaxshiroq bo'ladi. Adabiy tildan farq qilmaydigan formalarni qayd etish esa behuda takroni keltirib chiqaradi. Shuningdek, shevada uchramaydigan morfologik xususiyatlarni mavjud deb ko'rsatish ham katta nazariy va amaliy xatoga olib keladi, bu yolg'on fakt-dalillar kishilarni chalg'itishi mumkin.

Shevalarning morfologiyasiga oid bu dastur so'z turkumalri va morfologik kategoriyalar bo'yicha tuzildi. Agar ulardan tashqari holatlar uchrasa, alohida qayd qilish lozim.

1. Qaratqich /-ning/ va tushum kelishigi /-ni/ affikslarining farqlanishi yohud farqlanmasligi.

2. Qaratqich kelishigi affiksining qanday variantlari mavjud? /-ning, -n'ng, -d'ng, -ding, -t'ng, -ting, -d'n, -t'n/.

3. Tushum kelishigi affiksining variantlari: /-ni, -n', -d', -t', -, -i.

4. Jo'nalish(-ga) va o'rin-payt(-da) kelishiklari affikslarining farqlanishi yoki farqlanmasligi.

5. Shevada qanday qo'shma otlar uchraydi? Zarpechak, tolgul, bilaguzuk, ko'rsichqon, laylakqor, yo'lpashsha, tog'chumchuq, sixkabob.

6. Shevada -turuk/-duruk/-dirik/-tirik affikslari orqali ot yasalamiz? Bo'yinturuq, umulduruq, umildiriq, shumulturuq, papultiriq/ kabi.

7. Jo'nalish kelishigi affiksining variantlari: /-ga, -gə, -kə, -g'a, -qa, -a, -ə, -ya, -yə/.

8. O'rin-payt kelishigi affiksining qanday variantlari mavjud? /-da, -də, -ta, -tə/.

9. Chiqish kelishigi affiksining qanday variantlari mavjud? /-dan, -dən, -tan, -tən, -din, -d'n, -tin, -t'n/.
10. Ko'plik affiksi (lar) ning qanday variantlari mavjud? /-lar, -lär, -lə, -när, -nar, -är, -ar/.
11. -lar yoki -la affikslari hurmat ma'nosida yakka shaxslarga nisbatan ham ishlatiladimi? /dädämlä, /kämäl/ kabi.
12. Shevada egalik affikslarining qanday variantlari mavjud? /mekteb'm'z, mektep'm'z, mektap'vuz, uy'm'z, oy'vuz/ kabilar.
13. Shevada lpemle-lpemg'le, ly'mle-ly'mg'le, buv'mle-buv'mg'le formalari mavjudmi?
14. «Ko'k» sifatining orttirma darajasining qanday variantlari uchraydi? /ko'm-ko'k, kom-kov, kum-kuv, kokmek/ kabi.
15. -rlq affiksining qanday variantlari mavjud? /-rek, -rlk, -rlg', -rog', -ro:, -lav, -tav/ kabi.
16. -g'ln, -lng'ch, -äk kabi sifat yasovchilarning qaysi biri shevada mavjud?
17. Tartib son yasovchi affikslarning qanday variantlari mavjud? /-lämch', -länch', -(')nch', -(')ndj', -(u)ndj', -(i)nchi/ kabilar.
18. Birdan o'ngacha sonlar va o'nlik, yuzlik, minglik sonlar qanday talaffuz etiladi? Sheva vakiliga sanatib yozib oling.
19. Shaxs va ko'rsatish olmoshlarining quyidagi ko'rinishlaridan qaysilari shevada ishlatiladi? Masalan: men-män, sen-sän, u-ul-ol-vol, b'z-b'zlar-b'zär-b'zä, bu, shu, sho, oshe, sh', häylä-häyläho, änä-än', mänä-män', mänä bu-mänvu-mänov-m'nov, ana u-änov kabilar.
20. So'roq olmoshlarining qanday variantlari uchraydi?
21. Jo'nalish kelishigidagi shaxs va ko'rsatish olmoshlarining ifodalanishi: /mengä-mängä-mag'an, senga-sängä-sängä-säg'an/ kabi.
22. Chegara ma'nosini bildiruvchi affikslarning qanday variantlari bor? /-gachä, -kächä, -qacha, -devur, -chovur, -chavur, -dong/ kabi.
23. Aniq hozirgi zamon fe'llarining ifodalanishi: -vot, -vut, -yap, -yöp, -ut, -op, -yat'r, -djat'r/ kabilar.
24. Shevada kelasi zamon fe'lining ifodalanishi: -djek, -djaq, -chek, -chaq, -äd'gän, -ad'gan, -miz, -vuz, -vuzo: /bardjaqman, geldjekman, barchaq, boräd'gänmän, keläd'gänmän, boräm'z, borovuz, borovuze/ kabi.
25. Kelasi zamon fe'lining ketarmishman, ketarmishsan, ketarmish kabi formalari mavjudmi?
26. O'tgan zamon fe'llarining ifodalanishi: -dik, -duk, -duv, -dig /bord'k, bordug, borduv, keldig/, -vuz, -vuze, -d'y'z, -m'sh, -gan, -kän, -miz /borduvuz, borduvuze, bor'm'sh, barg'amm'z, boruvkemm'z, bord'm'z/ kabilar.
27. Shevada buyruq-istak maylining qanday variantlari mavjud? -g'al', -geli, -al', -el', -eyluk, 'lyluv: /baral', boreylik, boreyluv/ kabi.
28. Shevada blrsak, blrslv, blrslvuz, blrsem'z, blrseng'z, blrsey'z, blrsele kabi shart mayli ko'plik affikslarining qaysi bir varianti ishlatiladi?
29. -maqchi, -mlxchi, -mlqchi, -ml:chi, -mag'chi, -maxchi affikslarining qaysi biri shevada ko'p qo'llanadi?
30. -gudek, -g'udek yordamida tuzilgan fe'l formalari mavjudmi?
31. Itvlrldi, yutvlrldi, ketvlrlduk, aytvur-etvur, sltvllldi, lpqlldi, lblraman, lpke-apke tipidagi qo'shma fe'llar uchraydimi?
32. Fe'lining orttirma daraja formalaridan (-t, -at, -it, -giz, -k'z, -q'z, -g'z, -gaz, -kaz, -qaz, -g'az, -i, -az, -tir, -dir, -ir) qaysi biri aktivroq ishlatiladi?
33. Blr'b edi-baribed' -barivedi-blruvd' so'zlarining qaysi biri o'rganilayotgan ushbu shevada mavjud?
34. -(a)r, -mas affikslari qatnashgan so'zlar qo'llanadimi?
35. Sifatdosh yasovchi qo'shimchalarning dialektal-shevagagina xos bo'lgan variantlari uchraydimi, qayd qiling.
36. Shevada ravishdosh yasovchi qo'shimchalarning qanday variantlari mavjud?
37. O'rganilayotgan shevada munda, uyog'dä, buyog'dä, shuyog'dä, b'yog'dä, äg'dä, bæg'dä, äqqä, bəqqä, shəqqä, shäg'dä, o'ttä, öttä, bo'ttä, sho'ttä, uyerdä, sherdä, shettä, uyon, buyon, shuyon, boz, bo, yänä, yänəbo, tag'än, tag'a, tag'ändä, song, son, sog'än, b'ryole kayubi ravishga oid so'zlarning qaysi xillari uchraydi?
38. Fe'ning birgalik daraja formalari: bol'ler kel'shed', k'tob o'q'shed' kabi aytiladimi yoki bol'l'r keled'ler, k'tob oq'yd'ler formasida -sh, -ish affikslari olmasdan talaffuz qilinadimi?
39. To'liqsiz fe'ning quyidagi formalaridan qaysi biri ishlatiladi: edi (di), ekan (kan, akan), emish (emush, mush, mish)?
40. Bilan ko'makchisining tarqalishi: kim b'len, kim minan, k'm m'nen, kimmen, kummen kabilar.
41. Lekin ko'makchisining qanday dialektal variantlari uchraydi? /lekin, nek'n, lok'n, emmo-lok'n/ kabilar.
42. -m'//-mi// -ma// -me// -ne so'roq yuklamalarining tarqalishini aniqlang: blrm//blrma//barna//keläd'm'//keləmə kabilar. Misollarni shevaga oid matnlar asosida keltiring.
43. Adabiy tildagidan farq qiluvchi so'z yasovchi affikslar yoki shevaning o'zigagina xos bo'lgan yasovchilar mavjudmi? Bo'lsa, ularga matn asosida misollar keltiring.

44. Shevada qanday emotsional soʻzlar mavjud? /lh, lh-lh, vlh-vlh, bay-bay, plh-plh, astaprill, ylpirimay, pix-pix/ kabilar.
45. Tovushga taqlid soʻzlarning qanday turlari mavjud? /vish-vish, pisir-pisir, tasir-tusir, hiq-hiq, pix-pix/ kabilar.
46. Shevadagina uchraydigan qoʻshimchalar haqida toʻxtalib va misollar keltiring.

Shevalar leksika boʻyicha materiallar toʻplash

Oʻzbek shevalarining leksik xususiyatlarini oʻrganish shevaning boshqa boʻlimlarini-qismlarini oʻrganishga nisbatan biroz osonroq boʻladi. Chunki bunda talabalar leksika boʻyicha tuzilgan soʻroqlikdan foydalanib yozib olishi mumkin boʻladi. Shuningdek, narsa va predmetlarni koʻrsatib, ularning nomlarini soʻrab olishi ham mumkin. Koʻp maʼnoli soʻzlarning har birining maʼnolarini ochib berish uchun esa ularni matnning ichida berish lozim. Hozirgi kunda sheva hayotiga kirib kelayotgan yangi soʻzlarga ham alohida eʼtibor berish kerak.

Shevalarni oʻrganganda shunday soʻzlari uchrashi mumkinki, ularning barchasini oldindan bilishi qiyin. Shuning uchun talabalar shevadagi har bir yangi soʻzga jiddiy eʼtibor berishi, uchragan yangi soʻzni matn ichida yozib borishi kerak. Ana shundagina oʻrganiladigan shevaning lugʻat tarkibi maʼlum darajada toʻliq aks ettirilishi mumkin va talabalar ushbu amaliyotdan ancha narsalarni oʻrganishlari aniq boʻladi. Quyidagilarga talaba oʻrganayotgan shevasi materiallari asosida har biriga 20 (yigirmata) dan misollarni javoblarida yozishlari lozim:

1. Antonimlarni qayd eting.
2. Shevada uchrovchi omonimlarni toʻliq yozib olishga harakat qiling.
3. Mazkur shevada uchragan sinonimlarni birma-bir yozib oling.
4. Sheva hududidagi joy nomlari – toponimlarni yozib oling va uning tarkibidagi dialektizmlarni izohlang.
5. Sheva hududida uchrovchi gidronimlarni qayd qiling va uning tarkibidagi dialektizmlarni sharhlang.
6. Sheva vakillari yashayotgan hududga xos tarixiy inshoot va binolarning, machitlarning nomlarini yozib, izohlang.
7. Sheva vakillari nutqiga xos qabriston nomlarini yozing va uning tarkibidagi dialektizmlarni sharhlang.
8. Sheva mavjud boʻlgan hududda uchrovchi etnografik nomlarni birma-bir yozib oling va uning tarkibidagi dialektizmlarni izohlash.
9. Shevada uchrovchi qarindosh-urugʻchilik atamalarini qayd eting va uning tarkibidagi dialektizmlarni sharhlang.
10. Sheva vakillari nutqidagi uy-roʻzgʻor buyumlarining nomlarini yozib oling, izohlang.
11. Shevaga xos kuyov salomlarni yozing va va uning tarkibidagi dialektizmlarni sharhlang.
12. Shevaga oid kelin salomlarni yozib oling va uning tarkibidagi dialektizmlarni izohlash.
13. Shevadagi tez aytishlarni yozib olish va uning tarkibidagi dialektizmlarni sharhlang.
14. Shevada qoʻllanuvchi oziq-ovqat nomlarini yozib oling va uning tarkibidagi dialektizmlarni izohlash.
15. Shevada qoʻllanuvchi kiyim-kechak nomlarini qayd eting va uning tarkibidagi dialektizmlarni sharhlang.
16. Shevada qoʻllanuvchi ish-qurollarining nomlarini yozib oling va uning tarkibidagi dialektizmlarni izohlash.
17. Shevada qoʻllanuvchi zeb-ziynat, taqinchoqlarning nomlarini yozib oling va uning tarkibidagi dialektizmlarni sharhlang.
18. Shevada qoʻllanuvchi parranda nomlarini yozib oling va uning tarkibidagi dialektizmlarni izohlash.
19. Sheva vakillari asrovchi uy hayvonlarining nomlarini yozib oling.
20. Shevada qoʻllanuvchi yovvoyi hamda yirtqich hayvonlarning nomlarini birma-bir yozib oling.
21. Sheva vakillari ishlatuvchi ovchilik va baliqchilik atamalarini birma-bir qayd eting.
22. Sheva vakillari aloqador boʻlgan urugʻ va qabilalarning nomlarini toʻliq yozib olishga harakat qiling.
23. Shevada «supurgi» soʻzi qanday aytiladi?
24. Toʻy bilan bogʻliq soʻzlarni yozib, ularni toʻy qoʻshiqlari bilan izohlang.
25. /Zagʻizgʻln, hekke, alashaqshaq/ soʻzlaridan qaysi biri bu shevada bor ekan?
26. /Chugʻurchuq, qlreyeloq, yellq/ soʻzlarining qaysi birlari oʻrganilayotgan shevaga xos?
27. Shevada /temene, juvoldʻz, yoʻgʻon igna/ soʻzlarining qaysi biri qoʻllanadi va qaysi maʼnoda?
28. Satil, paqir, chelak soʻzlarining qaysi biri qoʻllanadi?
29. Palos vazifasini bajaruvchi qanday soʻzlar shevada bor?
30. Oʻlimga oid sheva soʻzlarini yozing va ularni gaplar, marsiyalar bilan izohlang.
31. Shevada erkalash maʼnosini ifodalovchi qanday soʻzlar ishlatiladi?
32. Oʻrganilayotgan shevada qargʻishni (haqoratni) anglatadigan qanday soʻzlar tez-tez qoʻllanadi?
33. Quyidagi leksik dubletlardan qaysi biri shevada aktiv qoʻllanadi? Masalan: /nervon, shotʻ, zengʻ, norbon, otʻr, kelʻ, soʻqʻ, goshenge, chʻmʻldʻq, gosheyene, chimildʻq, duxobe, baxmal, barqʻt, chechvon, chashpant, chʻmmet, chimmet, nonpar, chekʻch/ kabilar.
33. Shunday qilib iborasining shevada boshqa variantlari mavjud boʻlsa, qayd eting.
34. Shevada «boʻyniga olmadi», «rad etdi», «munkir keldi» iboralarining qaysi biri ishlatiladi?
35. Shevada «dedi, didi, eyttʻ, ettʻ» soʻzlaridan qaysi biri ishlatiladi?

36. Quyidagi iboralarning qaysi biri o'rganilayotgan shevaga xos?
 A) kuchuk tishladi yoki qopdi;
 B) sigir suzdi yoki shoxladi.
37. «Ch'royl', kohl'k'/kohl'u, korkem, suluv» so'zlarining qaysi biri shevada faol qo'llanadi?
38. Tasdiq ma'nosini ifodalovchi «ha» so'zining qanday variantlari mavjud?
39. Adabiy tildagi «qidirmoq» so'zining qanday variantlari mavjud?
40. «Suvda suzmoq» iborasi shevada qanday qo'llanadi?
41. Yil fasllari shevada qanday nomlangan?
42. Shevada hunarmandchilikka oid qanday atamalar bor?
43. Shevada «etik» so'zining boshqa variantlari bormi?
44. Shevada «kalit» so'zining boshqa variantlari bormi?
45. Shevada «childirma» so'zining boshqa variantlari bormi?
46. Shevada palovni suzadigan idish qanday ataladi?
47. Kir yuvadigan tog'oraning shevada qanday nomlari bor?
48. Shevada «arqon» so'zining boshqa variantlari bormi?
49. Shevada qozonning qopg'og'i qanday nomlanadi?
50. Adabiy tildagi «g'isht» so'zining qanday variantlari mavjud?
51. «Bolta, oybolta, tever//teber» so'zlarining qaysi biri Shevada uchraydi?
52. Shevada «do'ppi» so'zining boshqa variantlari bormi?
53. Sheva vakillari qo'llaydigan pichoq turlarini yozing, ixohlang.
54. Adabiy tilda qo'llanuvchi «toza» so'zi bu o'rganilayotgan shevada qanday ma'no nozikliklari bilan uchraydi?

54. Shevada «yangi» so'zining boshqa variantlari bormi?
55. «Marza, pol, taxta» so'zlari bormi, ular qanday ma'nolarda ishlatiladi?
56. «Pushta, jo'yak, chel, tirgak» so'zlari bormi, ular qanday ma'nolarda ishlatiladi?
57. «Tashlama, zaykash, zaxkash, solma, zovur//zavr» so'zlari bormi, ular qanday ma'nolarda ishlatiladi?
58. Adabiy tildagi «sharshara» so'zining qanday variantlari shevada uchraydi?
59. «To'g'on» so'zi shevada ham qo'llanadimi yoki boshqa so'zlar shu ma'noda ishlatiladimi?
60. Uy hayvonlarini chaqiradigan so'zlar shevada bormi?
61. Uy hayvonlarini haydaydigan so'zlar ham shevada bormi?
62. Shevada «echki, uloq» so'zlarining yana qanday variantlari uchraydi?
63. Shevada erkaklar qo'llaydigan qupol so'zlarni yozish.
64. Shevada ayollar qo'llaydigan qupol so'zlarni yozish.
65. Shevada o'g'il bolalar qo'llaydigan qupol so'zlarni yozish.
66. Shevada qizlar qo'llaydigan qupol so'zlarni yozish.
67. Shevada momalar qo'llaydigan qarg'ishlarni yozish.
68. Shevada ayollar qo'llaydigan qarg'ishlarni yozish.
69. Shevada eshakning bolasini qanday so'zlar bilan atashadi?
70. Adabiy tildagi «ari» so'zining bu shevada variantlari bormi? Bo'lsa, birma-bir qayd qiling.
71. Qo'y va echkilarga qiron keltiradigan yirtqich hayvonning shevadagi nomi nima?
72. Shevada «it, mushuk» so'zlarining qanday variantlari bor?
73. Adabiy tildagi «chittak» so'zining bu shevada variantlari bormi? Bo'lsa, birma-bir qayd qiling.
74. «Chumoli» so'zi shevada qanday so'zlar bilan ataladi?
75. Adabiy tildagi «ninachi» so'zining bu shevada variantlari bormi?
76. «Oshqovoq» so'zi o'rganilayotgan shevada qanday variantlarda uchraydi?
77. «Or'k, g'ol'n, zordol'» so'zlaridan qaysi biri shevaga xos?
78. «Yelp'z, p'd'ne//pidana, h'ive» so'zlaridan qaysi biri shevaga xos?
79. Shevada «murch va qalampir» so'zlari ma'no jihatdan farq qilinadimi?
80. Adabiy tildagi «non» so'zining shevada qanday variantlari mavjud?
81. «Rovech//ravoch, chukur'» so'zlaridan qaysi biri shevaga xos?
82. «Dovuchche, davuchcha, davcha, duvche, devcho, g'ora» so'zlaridan qaysi biri shevaga xos?
83. «Ishkom, voyish, so'ri» so'zlaridan qaysi biri shevaga xos?
84. Adabiy tildagi «bola» so'zining qanday variantlari ushbu shevada mavjud?
85. «Mo'ylov» so'zining qanday ko'rinishlari mavjud?
86. Adabiy tildagi «chaqaloq» so'zining qanday variantlari bor?
87. O'rganilayotgan shevada kishi a'zolari qanday nomlar bilan ataladi?

88. «Ochofat, xasis» kabi kishi xarakteridagi kamchilik-nuqsonni bildiruvchi soʻzlar shevada qoʻllanadimi?
89. Tegirmonchilikka oid atamalar bu shevalarda qoʻllanadimi?
90. Temirchilikka oid atamalar bu shevalarda qoʻllanadimi?
91. Shevada qanday ogʻirlik oʻlchovlari qoʻllaniladi?
92. Shevada hunarmandchilik atamalari bormi? Boʻlsa, yozib izohlang.
93. Ushbu shevada tovuq, xoʻrozlarning turlari qanday nomlar bilan aytiladi?
94. Shevada vaqt oʻlchovlarini anglatuvchi soʻzlar qanday variantlarda uchraydi?
95. «Djʻger, bagʻʻr, bavur» soʻzlarining qaysi biri shevaga xos?
100. «Kiprik, kirpik, mujgon» soʻzlaridan qaysi biri shevada faol ishlatiladi?
101. «Bosh va kalla» soʻzlari shevada qanday maʼnolarda qoʻllanadi va ularning qanday variantlari mavjud?
102. «Peshone, mengley» soʻzlari shevada qanday maʼnolarda qoʻllanadi va ularning qanday variantlari mavjud?
103. Dost//dos, ortoq, djora//djoro//djorjon, esh, yoldish, lgʻeynʻ, boyʻnse, Ishne/ soʻzlarining qaysi biri oʻrganilayotgan shevada mavjud?
104. Shevada «qoʻshni» soʻzining qanday variantlari mavjud?
105. «Xola» soʻzi shevada ishlatiladimi?
106. Shevada xolaning bolasini qanday soʻzlar bilan atashadi?
107. «Pochcha» soʻzi shevada qanday variantlarda ishlatiladi va ular qanday kishilarga nisbatan qoʻllaniladi?
108. Sheva kishilari akasining xotinini qanday chaqiradilar va uning yana qanday variantlari mavjud?
109. «Boldiz, kundosh, ovsin, beka, bekach, oyim, aya, qayin, qayinsingil, qayinogʻa» soʻzlaridan qaysi biri koʻp ishlatiladi va qanday maʼnoda qoʻllanadi?
110. Bolalarning yosh jihatdan farqlanishi shevada qanday holatda?
111. Shevada adabiy tildagi «ona» soʻzining qanday variantlari bor va ulardan qaysi biri faolroq qoʻllanib ketmoqda?
112. Imorat va uning qurilishiga oid shevaga xos boʻlgan soʻzlarni birma-bir qayd qilib chiqing.
113. Chevarchilikka oid atamalarni yozib olish.
114. Kashtachilikka xos atamalarni qayd etish.
115. Shevada qanday gul nomlari tez-tez ishlatiladi?
116. Bugʻdoy navlari sheva vakillari nutqida qoʻllanadimi?
117. Qovun navlari shevada qanday variantlarda saqlanib qolgan?
118. Tarvuz navlari ushbu shevada qanday koʻrinishlarda ishlatiladi va nega shu holatda ishlatiladi?
119. Shevangizga oid urugʻ-qabila nomlarini qayd etish.
120. Uzun navlari yozish.
121. Shevada qush oviga oid qanday soʻzlar ishlatiladi?
122. Arava va aravazozlikka oid qanday soʻzlar bu shevada tez-tez qoʻllanadi?
123. Uy bezatishga oid qanday soʻzlar shevada mavjud?
124. Dam olishga xos boʻlgan qanday soʻzlar shevada ishlatiladi?
125. Sheva vakillari nutqida qanday xalq oʻyinlarining nomlari saqlanib qolgan?
126. Toʻy nomlaridan qaysi birlari shevada koʻproq qoʻllanadi?
127. Beshik toʻyi qanday oʻtkaziladi?
128. Oʻgʻil toʻy qanday holda boʻladi?
129. Qiz toʻyi qanday oʻtkazilmoqda?
130. Shevada «aqqlʻ, ldlblʻ» soʻzlarining qanday variantlari ishlatiladi hamda ular qanday maʼnolarda boʻladi?
131. «Oʻqituvchi, muallim» soʻzlari shevada yana qanday variantlarda aytiladi?
132. Shevada «yosti, bolish, loʻla, loʻlva, takya» soʻzlarining qaysi biri qoʻllanadi hamda qanday maʼnoda ishlatiladi?
133. Oʻrganilayotgan shevada eskicha pul sanogʻi mavjudmi?
134. Uy-roʻzgʻor nomlarini yozish.
135. Harakat nomlarini birma-bir qayd qilish.
136. Ovqat nomlarini yozish.
137. Shevangizga oid sutli ovqatlarning nomi yozib, izohlang.
138. Shevangizga xos yogʻli ovqatlarning nomlarini yozib, ularni izohlang.
139. Shevaga oid «Yor-yor»larni yozib, ulardagi dialektal soʻzlarning tagiga chizing.
140. Shevaga oid «Kuyov salom»larni yozib, dialektal soʻzlarini belgilang.
141. «Charlar» qanday oʻtkaziladi?
142. Marhumlar uchun qanday urf-odatlar oʻtkazilib turadi?
143. Shevangizga oid kiyim nomlarini yozing, izohlang.

144. Shevangizga xos erkaklarning qishki va yozgi kiyimlarining nomini yozing va izohlang.
145. Shevangizga xos ayollarning qishki hamda yozgi kiyimlarining nomlarini yozib oling va Sharhlang.
146. Shevangizga xos bolalar kiyimlarining nomlarini yozib, ularni izohlang.
147. Shevangiz vakillariga xos qadimdan davom etib kelayotgan urf-odatlarining nomini yozib, izohlang.
148. Bezak nomlarini qayd etish.
149. Sheva vakillari nutqida qo'llanadigan toponimlarni qayd etish.
150. Shevangizga oid hikmatli so'zlarni yozing.
151. Shevangizga xos frazeologizmlarni qayd etib, ma'nolarini yozish.
152. Shevangizga oid bo'lgan maqollarni yozib, ularni tushuntirib bering.
153. Sheva vakillari izohlagan toponimlarni yozib olish.
154. «Mahmadona, ezma» so'zlarining qanday variantlari mavjud va ular qanday ma'nolarida qo'llanadi?

Shevalar sintaksisi bo'yicha materiallar to'plash

Shevalar sintaksisini o'rganish ham dialektologik amaliyotning ajralmas bir qismi hisoblanadi. O'zbek shevalari bo'yicha qilingan ko'pgina ilmiy tadqiqotlarda sintaktik xususiyatlar umumiy obzor tariqasida o'rganilgan. Chunki F.Abdullayev, Yu.Jumanazarov va M.Turoqovlarning shevalar sintaksisi haqidagi monografiyalari ma'lum bir ajratib olingan hududlarning shevalariga bog'langandir. Shevalarning sintaktik xususiyatlarini o'rganish uzoq muddatli kuzatishlar natijasida to'plangan daliliy materiallar asosida yoritib berishni talab qiladi.

O'zbek tilining shevalar sintaksisi o'ziga xos konstuksiyalar va oborotlarga egaki, ularni o'rganish va tahlil qilish o'zbek tili tarixi uchun ham, hozirgi o'zbek tili uchun ham qimmatli ilmiy-nazariy xulosalar yaratib beradi. Amaliyotga chiqqan talabalar o'zlari o'rganayotgan shevaning barcha sintaktik xususiyatlarini to'liq aks ettira olmasalar-da, ayrim sintaktik hodisalarni qayd qilib olishlari lozim. Talabalar iloji boricha, o'rganilayotgan shevaning o'ziga xos ayrim sintaktik xususiyatlariga e'tiborini qaratishlari o'rindidir. Shevalar sintaksisini o'rganishda quyidagilarga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiq:

1. Shevaga xos so'z birikmalarini qayd etish.
2. Shevaga xos sodda gaplarni yozing.
3. Gap tuzilishida bo'ladigan alohida holatlarni qayd qilish.
4. Sodda gaplarning turlarini qayd etish.
5. Bir sostavli (bir o'ramli) gaplarning alohida turlari uchrasa, ularni yodlab olish.
6. Gap bo'laklarining shevaga xos joylashish xususiyatlarini aniqlash.
7. Sheva vakillarigagina xos so'z birikmalari bormi?
8. Shevada *tarafi blzlr, buluti siyl, guli ra'nl, m lzri kalon* kabi izofali so'z birikmalari mavjudmi?
9. Tobe so'z ko'makchi bilan bog'langan holda keladimi? (*Bolasiychun opti-bolasi uchun opti kabilar*).
10. Qo'shma gapning shevaga xos xususiyatlariga e'tibor berish va ularni yozib olish.
11. Qo'shma gapning shevaga xos qanday turlari uchradi?
12. Shevadagi gaplarda gap bo'laklarining belgisi qo'llanishiga misollar keltiring.
13. Shevadagi gaplarda gap bo'laklarining belgisiz ishlatilishiga namunalar bering.
14. Shevangizda sodda gapdan ko'p foydalanadimi?
15. Shevangizda qo'shma gapdan ko'p foydalanadimi? Nega shunday deb o'ylaysiz?
16. Shevangizdagi gaplarda kiritma bo'laklar ham qo'llanadimi? Misollar keltiring.
17. O'zga gapning alohida turlari uchrasa, ularni qayd qilish.
18. Shevada bir so'zdan iborat gaplar uchradimi?
19. Shevangizda ajratilgan gap bo'laklari ham ishlatiladimi, misollar keltiring.
20. Shevaga xos bo'lgan har qanday oborot va konstruksiyalarni yozib olish.
21. Murakkab konstruksiyali gap(matn)lar uchrasa, ularni alohida qayd etish lozim.

Talabalar shevani o'rganish jarayonida o'zi to'liq tahlil qila olmaydigan sintaktik hodisalarga duch kelishi ham mumkin. Bunday holatda ularni to'liq yozib olib, o'qituvchiga ko'rsatish lozim.

Sheva materiallari yig'iladigan hudud va amaliyotining muddati to'g'risida

Shu Sheva aholisi o'zbek tilining qaysi lahja yohud shevalar guruhiga mansub ekanligi.

Keyingi davrda shu shevada ro'y bergan ayrim fonetik va leksik o'zgarishlar.

Sheva vakillarining tuman hamda shahar markazidan qanchalik uzoqlikda joylashganligi.

Bu hududda o'rganilayotgan sheva vakillari bilan yana qanday millat, elat vakillari istiqomat qilishlari.

Shevaning shu guruh shevalaridan o'zigagina xos xususiyatlari.

Sheva vakillari nutqida boshqa tillarning ta'siri bor yoki yo'qligi aniqlanadi. Bo'lsa misollar keltiriladi.

Bu sheva oldin biror bir olim tomonidan o'rganilganmi?

Sheva agar olimlar tomonidan oldin o'rganilgan bo'lsa, uning qaysi xususiyatlari e'tibordan chetda qolganligi haqida gapiring.

Amaliyot davrida shevaga xos xarakterli xususiyatlar haqida tug'ilgan fikr-mulohazalar yozib boriladi.

Bu amaliyot vaqtida paydo bo'lgan turli xil muammolar ham ko'rsatiladi.

Mazkur amaliyotni tashkil etish hamda uni o'tkazish yuzasidan bildiriladigan taklif va istaklar ham iloji bo'lsa yozib boriladi.

Yozilgan hisobot amaliyot davrida sheva materiallari yozish uchun tutilgan daftar (bu daftar shevaga oid matnlar va amaliyot dasturi asosida to'ldirilgan bo'ladi) hamda talabani kunlik ish daftari bilan birgalikda amaliyot rahbariga topshiriladi. Rahbar ularni ko'rib chiqib, ro'yxat asosida qabul qiladi: har bir daftar, magnitafon kassetasi yoki boshka vositalarda yig'ilgan materiallar ro'yxat qilinib kafedraga topshiriladi.

Har bir qabul qilingan materialga, hisobotning to'g'ri va aniq yozilganligiga, ayniqsa, shevaga oid materiallarning pasportlari chalkashib ketmasligiga alohida e'tibor beriladi. To'plangan shevaga oid materiallar ma'lum bir tizimga solinib, alohida-alohida belgilanadi.

Talabalar hisobot bilan birga ushbu amaliyot davomida qilingan ishlar, to'plangan shevaga oid materiallar, yangi topilmalar, tabiat manzara-lari, ommaviy-siyosiy ishlar va madaniy dam olishlar aks ettirilgan foto albomlarni ham tuzib topshirishadi. Amaliyot davrida qilingan ishlar va tassurotlar yuzasidan albom tuzish har bir talaba uchun maroqli.

Dialektologik amaliyotning yakuni sentyabr oyida anjuman sifatida o'tkaziladi. Chunki yangi o'quv yili boshlangach, o'qituvchilar jamoasi va talabalar bilan birgalikda amaliyot to'g'risida majlisda gaplashib olish maqsadga muvofiq. Bunda amaliyot rahbarlari hamda talabalar bajarilgan ishlar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini aytib o'tishadi. Mana shu hol talabani amaliyotdan olgan ko'nikmalarini tanqidiy ravishda jiddiy qarab chiqishlariga turtki bo'ladi. Talabalar "Quyidagi ishlarni bajardim", deb sheva materiallarini to'plab, yozgan daftarlarini baho olish uchun ro'yxat bilan rahbarlarga topshirishadi. Amaliyotning yutuq va kamchilik-lari to'g'risida ham talabalar o'z fikrlarini aytishadi. Shundan so'ng amaliyot rahbari kafedra, dekanat va universitet (institut)ning o'quv ishlari bo'limiga yozma hisobot topshirishadi. O'tkazilgan dialektologik amaliyotning yakuni kafedra yig'ilishida hamda fakultet ilmiy kengashida ham ko'rib chiqiladi va kelgusi yilgi bo'ladigan dialektologik amaliyotda qilinadigan ishlar rejalashtiriladi.

"O'zbek dialektologiyasi" fani amaliyotining bajarilishi to'g'risida hisobot

Ushbu amaliyotni yakunlash va u haqida hisobot topshirish ham amaliyotning asosiy va ma'suliyatli qismlaridan biri hisoblanadi. Bu hisobot talabalarning o'quv amaliyoti davomida amalga oshirgan barcha faoliyatining ko'zgidir. Shuning uchun ham talabalarning mazkur amaliyotdagi ishlarini baholash ham mana shu hisobot asosida bo'ladi. Buning uchun talabalar yuqorida aks etgan reja bilan shevalarni o'rganishda kerak bo'ladigan maxsus dialektologik dastur asosida hisobot yozib topshiradilar.

Talaba bu amaliyotdan juda ko'p narsalarni o'rganishi, ayrim qarama-qarshiliklarga duch kelishi, ayrim yutuqlarni qo'lga kiritishi va mustaqil fikrlar bilan chiqishi mumkin. Mana shu narsalar uning hisobotida o'z aksini topadi. Amaliyot tugagach, uning o'tishi haqida hisobot talab qilish talabalarning o'z ishiga mas'uliyat bilan qarashlarini, samarali ishlashlarini hamda har bir ishga ijodiy yondashishni o'rgatadi. Hisobotda nimalar aks etishini avvaldan rejalashtirib, uni talabalarga etkazib qo'yish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Amaliyot yakunida talaba o'zi o'rgangan sheva vakillari o'rtasida olib borgan ishlari, amaliyotdan orttirgan ko'nikma va malakasi, duch kelgan turli xil muammolari, o'zida tug'ilgan ayrim fikr-mulohazalari haqida to'liq hisobot yozadi. Shevaga oid leksik birliklarning ko'rsatilgan namuna asosida so'zligini tuzadi.

Asosiy adabiyotlar

- | | |
|----|--|
| 1. | Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. |
| 2. | Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Toshkent: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2004. |
| 3. | Enazarov T., Karimjonova V.A., Enazarova M.S., Mahmadiyev Sh.S., Rixsiyeva K.G'. O'zbek shevashunosligi. - Toshkent: Universitet, 2012. – B.184. |
| 4. | Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent: Navro'z, 2016. – B. 150. |

Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar

- | | |
|-----|--|
| 1. | Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги.- Тошкент: Ўқитувчи,1996. |
| 2. | Решетов В. В. Ўзбек диалектларини монографик ўрганиш // ЎТА.1960. 1-сон. |
| 3. | Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1997. |
| 4. | Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1997. |
| 5. | Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси.- Тошкент: Ўқитувчи, 1962. |
| 6. | Шоабдурахмонов Ш. Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1962 |
| 7. | Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 1-қисм.- Тошкент: Фан, 1957. |
| 8. | Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 2-қисм.- Тошкент: Фан, 1960. |
| 9. | Ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. |
| 10. | Ўзбек шевалари лексикаси.- Тошкент: Фан,1991. |

FANDAN BAHOLASH MEZONI VA TARTIBI

«O'zbek dialektologiyasi» fanidan talabalar bilimni baholash «Samarqand davlat universitetida ta'limning kredit tizimi sharoitlarida talabalar bilimni nazorat qilish tartibi va baholash mezonlari to'g'risida yo'riqnoma»ga asosan amalga oshiriladi.

Fan uchun ajratilgan jami kredit (soat) miqdori: 2 (60 soat)

Nazorat turi	Ajratilgan jami ball	Nazorat (topshiriq) shakli	Ballarning taqsimlanishi	Saralash bali
Oraliq nazorat	50 ball	Nazorat ishi: 1. Yozma ish (2 ta savol) 2. Yozma ish (2 ta savol)	20 ball: 10 ball; 10 ball.	30 ball
		3. Talaba faoliyati (amaliyot va seminar darslaridagi)	10 ball (mashg'ulotlar soniga bo'linadi)	
		4. Mustaqil ish	20 ball (topshiriqlar soniga bo'linadi)	
Yakuniy nazorat	50 ball	Yozma ish (5 ta savol) yoki Test (50 ta savol)	50 ball (har bir savolga 10 balldan) 50 ball (har bir savolga 1 balldan)	30 ball

Fan bo'yicha yuqorida keltirilgan nazoratlarda to'plangan reyting umumlashtiriladi hamda yakunda ballar 5 baholik tizimga quyidagicha konvertasiya qilinadi:

- 87-100 ball – 5 (a'lo);
- 73-86 ball – 4 (yaxshi);
- 60-72 ball – 3 (qoniqarli);
- 0-59 ball – 2 (qoniqarsiz).

Dastur mualliflari:	Sh.Mahmadiyev, F.Nurmonov
E-mail:	shavkatmahmadyev2019@gmail.com; furqatnx@gmail.com
Tashkilot:	Samarqand davlat universiteti, «O'zbek tilshunosligi» kafedrası

Kafedra mudiri:  **Sh.S.Mahmadiyev**


Mazkur modul Filologiya fakulteti kengashining 2021-yil 26-maydagi 8-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

Kengash raisi:  **A.B.Pardayev**

M.O'.

“Kelishilgan”

SamDU o'quv ushbu boshqarma boshlig'i:

 dots. B.S.Aliqulov

2021-yil